<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralarini .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
<b>Rahmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



## O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA QAYTA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Sharobiddinov Akramjon Goyibbayevich**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ Bosh direktor o'rinbosari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qayta sug'urta faoliyati va uning O'zbekiston sug'urta bozorida roli ko'rsatib berilgan. Shuningdek, milliy qayta sug'urta bozori tahlil qilinib, uni rivojlantirish bo'yicha xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** qayta sug'urta, xizmatlar eksporti, to'lov qobiliyati, sug'urta eksporti.

**Abstract:** This article describes reinsurance activity and its role in the insurance market of Uzbekistan. Also, the national reinsurance market is analyzed and conclusions, suggestions and recommendations are given for its development.

**Key words:** reinsurance, export of services, solvency, insurance export.

**Аннотация:** В данной статье описывается перестраховочная деятельность и ее роль на страховом рынке Узбекистана. Также проанализирован национальный перестраховочный рынок и даны выводы, предложения и рекомендации по его развитию.

**Ключевые слова:** перестрахование, экспорт услуг, платежеспособность, страховой экспорт.

### KIRISH

Iqtisodiyotning muhim bo'g'iniga aylangan sug'urta faoliyati makroiqtisodiy indikator sifatida iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga asosiy turtki hisoblanadi. Iqtisodiy transformatsiya jarayonida davlat tomonidan sug'urta sohasini tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan har qanday yondashuvlar sug'urta tizimini takomillashtirishning algoritmlarini belgilab bermoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev boshchiligidagi sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan 2019-yil 10-iyuldagi yig'ilishda davlat rahbari tomonidan milliy sug'urta kompaniyalarining xalqaro moliya bozorlariga chiqishini ta'minlash, ilg'or korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish orqali xalqaro reytinglar olish bo'yicha ham aniq vazifalar belgilab berilgan edi.

2023-yil 1-oktyabr holatiga O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalarining jami aktivlari 9 335,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davrida 6 276,8 mlrd. so'm), jami investitsiya qo'yilmalari hajmi 5 23,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davrida 3 897,8 mlrd. so'm) tashkil etdi. Sug'urta kompaniyalarining ustav kapitallari hajmi 2 311,5 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,5 foizga ko'paygan. Sug'urta zaxiralari hajmi 4 324,0 mlrd. so'mni tashkil etib, bo'sh pul mablag'lari asosan moliya kredit tashkilotlariga depozit sifatida joylashtirilgan. Shuningdek, 2023-yilning 9 oyida kiruvchi qayta sug'urta mukofotlari hajmi 1 461,9 mlrd. so'mni tashkil etib, mamlakatda shu davrda yig'ilgan sug'urta mukofotlarining 24,7 foizini tashkil etdi.

O'zbekiston sug'urta bozorining xalqaro sug'urta bozori bilan integratsiyalashuvi natijasida, mamlakatda sug'urta eksporti (chet eldan risklarni qayta sug'urtaga qabul qilish) rivojlanish bosqichlarini belgilab berdi. Vaholanki, oxirgi yillarda qayta sug'urta mukofotlari hajmining keskin oshishi bevosita chet el sug'urta kompaniyalaridan qayta sug'urtaga risklarni qabul qilinishi bilan bog'liq.

Mamlakatda tovarlar va xizmatlar eksportini rivojlantirishga Hukumat darajasida jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda, bizning fikrimizcha, eksport ko'rsatkichlarini belgilashda yoki xizmatlar eksportini aniqlashda aynan sug'urta eksportiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Chunki, xizmatlar eksporti tarkibi sifatida sug'urta eksportini rivojlantirish mamlakat tashqi savdo aylanmasida eksport ko'rsatkichlari oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Buni qayta sug'urta mukofotlarini yig'ish bo'yicha mukammal muhit yarata olgan xorijiy davlatlar, jumladan AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveytsariya, Irlandiya, Yaponiya, Xitoy va boshqa davlatlar tajribasi tasdiqlaydi.



Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollarini belgilash va bu yo'nalishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish hamda sug'urta eksporti uchun qulay muhit yaratish juda muhim ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashda sug'urta sohasining o'rni alohida ahamiyat kasb etganidek, sug'urta sohasida qayta sug'urta yo'nalishining o'rni asosiy omillardan biri hisoblanadi. Buning natijasini oxirgi yillarda qayta sug'urta faoliyati bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, ko'lami, geografiyasi va mamlakat uchun keltirayotgan foydasidan ko'rish mumkin.

Qayta sug'urta faoliyati dastlab g'arb davlatlarida paydo bo'lganligi va takomillashganligini inobatga olsak, uning nazariy va amaliy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarini bir qator g'arb olimlari tomonidan keng o'rganilganligi va yoritilganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, D. Bland, K. Pfayffer, R. Karter, V. Idelson, O. Ioffe, K. Grave, L. Luns, O. Notkin, V. Rayxer va boshqa yetakchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Keyinchalik qayta sug'urta faoliyati takomillashish jarayonlarida Juravlev M. I., Yuldashev R. T., Kazansev S. K., Braginskiy M. I., Kamyunkina M. G., Shaxov V. V., Novikov B. S., Berezina S. V., Nikulina N. N., Solnseva E. E. va boshqa bir qator olimlar tomonidan o'rganishlar, tahlillar, qo'llanmalar va boshqa ilmiy yangiliklar fanga kiritilgan hamda amaliyotga joriy etilgan. Shu o'rinda, xalqaro qayta sug'urta bozori va qayta sug'urta faoliyatidagi o'zaro munosabatlar yo'nalishida Artamonov A. P., Malkovskaya M. A., Laykov A. A., Turbina K. E. kabi olimlar izlanishlar olib borishmoqda.

Mamlakatimiz olimlaridan Azimov R. S., Baymurotov T. M., Jumayev N. X., Imomov Sh. B., Kenjayev I. G., Mirsodiqov M. A., Nasretdinov S. S., Ochilov I. K., Sultonov D. M., Umarov S. A., Shennayev X. M., Shirinov S. E., Yuldashev O. T. va Qo'ldoshev Q. M. kabi iqtisodchi omillar umumsug'urta faoliyati, jumladan qayta sug'urta faoliyati bo'yicha o'z ilmiy qarashlarini bayon etishgan.

Lekin, O'zbekistonda qayta sug'urta faoliyatini jadal rivojlantirish bo'yicha qonuniy asoslarni yaratish, xalqaro sug'urta bozorida qayta sug'urta risklarini qabul qilish orqali yig'ilayotgan sug'urta mukofotlarini "sug'urta eksporti" sifatida talqin qilish borasida fikr yuritilmagan.

## TAHLIL VA NATIJADAR

Sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslarning turli risklar natijasida ko'radigan zararlarini sug'urta mexanizmi orqali himoyalash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23- noyabrdagi O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunida "sug'urta tavakkalchiligi — taxmin qilinayotgan voqea bo'lib, ushbu voqea yuz bergan taqdirda sug'urta amalga oshiriladi" deb ta'rif berilgan<sup>1</sup>.

Ayrim sug'urta tashkilotlari amaliyotida taxmin qilinayotgan voqeani qaltislik deb ham yuritiladi. Shu o'rinda taxmin qilinayotgan voqeani sug'urta tavakkalchiligi yoki sug'urta qaltisligi emas, balki "sug'urta riski" deb atash va yuritish taklif etiladi. Risk keng qamrovli tushuncha bo'lib, sug'urta va qayta sug'urta faoliyatida risk tushunchasidan foydalanish sohada terminlardan samaraliroq foydalanish imkonini beradi.

Qayta sug'urta sug'urta faoliyatidan farqli ravishda sug'urta kompaniyalarining turli risklar natijasida ko'radigan zararlarini himoyalash mexanizmi hisoblanadi. Bunda sug'urta tashkilotlari qayta sug'urtalash subyektlari hisoblanib, bitta sug'urtalovchiga yirik sug'urta risklarini qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

XIX asrga kelib asosan Yevropada joylashgan sug'urta kompaniyalarida sug'urta faoliyatining takomillishuvi va yirik sug'urta risklarini yuzaga kelishi, katta miqdorli risklarni to'planib qolishi xavotir uyg'ota boshladi. Yevropa davlatlari sug'urta bozorida XIX asrning boshlariga kelib qayta sug'urta faoliyati yuzaga kela boshladi, birinchilardan bo'lib Germaniyada qayta sug'urta tushunchasi targ'ib qilina boshlanadi. XIX asrning ikkinchi yarmida Kyoln qayta sug'urtalash jamiyati, Shveysariya qayta sug'urta jamiyati, Myunxen qayta sug'urta jamiyatlarini tashkil etildi.

Sanoatning rivojlanishi, yangi texnika texnologiyalarning jahon bozoriga kirib kelishi, xalqaro integratsiya jarayonlari, iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar va boshqa ko'plab jihatlar o'z-o'zidan qayta sug'urta faoliyatini kengroq joriy etilishini taqazo etdi.


Yadroviy reaktorlar, atom elektr stansiyalari, terrorizm, aviatsiya, qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi risklarni paydo bo'lishi bilan sohaga "qayta sug'urta puli" tushunchasi kirib keldi. Bu sug'urta va/yoki qayta sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy birlashmasi hisoblanib, ular butun sug'urta portfeli, alohida sug'urta turlari yoki ayrim xavfli risklarni o'zaro kelishuv asosida bo'lib olishidir.

2022-yil boshiga kelib dunyoda eng yirik qayta sug'urta kompaniyalari (qayta sug'urta guruhlarini) sug'urta bozorining asosiy ishtirokchisiga aylandi. Jumladan, Munich Re (Germaniya), Swiss Re (Shveysariya) Han-

1 O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrdagi O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni



nover Rueck (Germaniya), Canada Life Re (Kanada), SCOR (Fransiya), Berkshire Hathaway (AQSh), Lloyd's of London (Buyuk Britaniya), China Re (Xitoy), Reinsurance Group of America (Amerika), Everest Re (Bermud) va boshqa ishtirokchilar. 2021 yilda jahondagi kuchli 10 talikdagi qayta sug'urta kompaniyalarining (qayta sug'urta guruhlarining) qayta sug'urta bo'yicha yig'irlari va o'zaro ulushini 1-rasmda ko'rish mumkin.



1-rasm: 2021 yilda jahonda TOP-10 talikdagi qayta sug'urta kompaniyalarining qayta sug'urta bo'yicha yig'irlari (mlrd. AQSh dollarida) va o'zaro ulushi<sup>2</sup>

O'zbekistonda qayta sug'urta faoliyatining asosiy rivojlanish bosqichlari oxirgi 10 yillikka to'g'ri keladi. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida qayta sug'urta va qayta sug'urta faoliyati bilan bog'liq munosabatlar keng belgilab berilmagan edi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunda qayta sug'urta bilan bog'liq bir qator normalar kiritildi. Jumladan, qayta sug'urta, qayta sug'urtalovchi, qayta sug'urta shartnomasi tushunchalari, transchegaraviy sug'urta va qayta sug'urta, shuningdek, sug'urtalovchining qayta sug'urtaga doir sug'urta faoliyati aniq belgilab qo'yildi. Sug'urta (qayta sug'urta) sherikchiligi tashkil etish va uning huquqiy asoslari belgilab berildi.

2010-2018-yillar atrofida O'zbekiston sug'urta bozorida umumiy sug'urta mukofotlarida qayta sug'urta mukofotlarining ulushi o'rtacha 10-20 foizni tashkil etgan. Qayta sug'urta mukofotlari asosan ichki sug'urta bozorida olingan qayta sug'urta mukofotlari evaziga shakllangan, chet eldan qayta sug'urtaga deyarli risklar qabul qilinmagan. Katta yirik obyektlar bo'yicha olingan javobgarlik ichki sug'urta bozoriga sig'maganligi bois asosan chet el qayta sug'urta bozoriga qayta sug'urta qilingan.

Chet eldan qayta sug'urtaga olinadigan risklar juda kam miqdorni tashkil etgan, buning sabablari milliy sug'urta kompaniyalarining xalqaro reytingga ega emasligi, chet el sug'urta, qayta sug'urta bozori bilan integratsiyalashuvining pastligi, xalqaro moliyaviy auditning mavjud emasligi, qayta sug'urta risklarini baholovchi anderrayerlarning yetishmasligi va boshqa bir qator omillar.

Respublikada moliya bozorini yanada rivojlantirish, aholini sifatli moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish ko'lamini kengaytirish, sug'urta tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ushbu sohada iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2019-yilning 13-avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Qarorda sug'urta bozori mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaralib, qarorning 5-bandida "2019-yil 1-oktyabrdan boshlab

<sup>2</sup> Top 50 Global Reinsurance Groups. <https://www.reinsurancene.ws/>



shunday tartib joriy qilinsinki, unga muvofiq qayta sug'urtalovchi (qayta sug'urta brokeri) sug'urta majburiyatlarini qayta sug'urtalash uchun xorijiy sug'urta tashkilotlariga berishdan avval beriladigan sug'urta majburiyatlarining kamida 50 foizi miqdorida qayta sug'urtalash bo'yicha ofertani (qayta sug'urtalash shartnomalarini tuzish takliflarini) O'zbekiston Respublikasi hududida qayta sug'urtalash faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan sug'urta tashkilotlariga yuborishi shart<sup>3</sup>ligi belgilab qo'yildi<sup>3</sup>.

Asosiy maqsad sug'urta kompaniyalari tomonidan olinadigan risklarni avvalo, O'zbekiston sug'urta bozorida taqsimlash, buning natijasida chet elga chiqib ketuvchi valyuta mablag'larini tejash maqsad qilingan.

Shuningdek, qarorda sug'urta tashkilotlarining ishonchligi va moliyaviy barqarorligini aniqlash maqsadida ularni reyting baholashdan o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish, milliy va xalqaro reyting agentliklari tomonidan sug'urta tashkilotlari o'rtasida reytinglarni olish borasida tushuntirish ishlarini olib borish, sug'urta tashkilotlarini "due diligence" tekshiruvidan o'tishga va xalqaro reytinglarni olishga rag'batlantirish vazifalari yuklatilgan.

O'zbekiston sug'urta bozorida oxirgi yillarda bir qator yirik sug'urta kompaniyalari xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oldi va xalqaro qayta sug'urta bozoriga kirib bordi.


Jumladan, muallif tomonidan o'rganishlar natijasiga ko'ra, 2023-yilning 1-oktyabr holatiga O'zbekiston sug'urta bozorida 22 ta sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtaga qabul qilish uchun yetarlicha ustav kapitaliga ega bo'lsa, shundan O'zbekinvest, Kafolat sug'urta, Apex Insurance, O'zagrosug'urta, Euroasia Insurance, Gross, SQB Insurance, Temiryo'l Sug'urta va Impex-Insurance sug'urta kompaniyalari xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan xalqaro reytingga ega.

O'rganishlar natijalariga ko'ra bugungi kunda O'zbekinvest, Kafolat sug'urta, Apex Insurance, O'zagrosug'urta, Gross, SQB Insurance, Mosaic Insurance, Ingo-Uzbekistan va Semurg Sug'urta sug'urta kompaniyalari xalqaro bozordan qayta sug'urta risklarini qabul qilish bilan shug'ullanmoqda.

2020-yilda chet elga qayta sug'urta mukofoti 246,3 mlrd. so'mlik risklar qayta sug'urtaga berilgan bo'lsa, chet eldan qayta sug'urtaga olingan risklar bo'yicha qayta sug'urta mukofotlari hajmi 103,6 mlrd. so'mni tashkil etgan. Risklarni qayta sug'urtaga qabul qilish va risklarni qayta sug'urtaga berish o'rtasida salbiy saldo mavjud bo'lib, 142,7 mlrd. so'm ekvivalentidagi summa (qayta sug'urta mukofoti) chet elga berilgan.

2021-yilda 490,2 mlrd. so'm qayta sug'urta mukofoti qayta sug'urtalash uchun chet el sug'urta bozoriga chiqarilgan bo'lsa, chet eldan qayta sug'urtaga olingan qayta sug'urta mukofotlari miqdori 103,6 mlrd. so'mdan oshiqni tashkil etgan .

2022-yilga kelib bu ko'rsatkich o'zgardi. Chet eldan olingan risklar miqdori chet elga qayta sug'urtaga berilgan risklar miqdoridan oshdi, ya'ni qayta sug'urta mukofotlarida ijobiy saldo kuzatildi (2-rasm).



2-rasm: Xalqaro sug'urta bozori bilan qayta sug'urta munosabatlari<sup>4</sup>

2023-yilda bu ko'rsatkich yana ham oshishi va chet eldan qayta sug'urtaga olinadigan risklar bo'yicha qayta sug'urta mukofotlari oshishi kuzatilishi kutilmoqda. Kuzatishlar natijasiga ko'ra 2023-yilda O'zbekistonda sug'urta eksporti miqdori 100,0 mln. AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 5-bandi

4 <https://imda.uz/> saytida Sug'urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma'lumotlari.



Tahlillar va o'rganishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, chet eldan qayta sug'urtaga olingan risklar bo'yicha zararlilik darajasi (sug'urta to'lovlarining netto sug'urta mukofotiga nisbati) 50%dan oshmaydi. Bu kiruvchi qayta sug'urtaning foydaliligini ko'rsatadi.

Chet el sug'urta bozorida qo'llaniladigan sug'urta ta'riflari bilan O'zbekiston sug'urta bozorida qo'llaniladigan sug'urta ta'riflari keskin farq qiladi. Jumladan, chet elga qayta sug'urtaga berilgan risklar va qayta sug'urtaga olingan risklar bo'yicha shartli sug'urta ta'riflari (shartli ravishda qayta sug'urta mukofotining javobgarlikka nisbati) hisoblanganda 2020-yilda 12 barobarga, 2021-yilda 16,5 barobarga, 2022-yilda 4,5 barobarga, 2023-yilning birinchi yarim yilligida 4,2 barobarga qayta sug'urtaga berilgan ta'riflarimiz pastligini ko'rsatmoqda (1-jadval).

1-jadval: Chet elga qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar<sup>5</sup>

Yillar	Chet elga qayta sug'urtalashga berilgan risklar javobgarligi, mlrd. so'm	Chet elga qayta sug'urtalashga berilgan risklar bo'yicha qayta sug'urta mukofoti, mlrd. so'm	Shartli sug'urta tarifi (qayta sug'urta mukofotining javobgarlikka nisbati),%da
2020	299 002,1	246,3	0,08
2021	367 944,1	490,2	0,13
2022	631 203,1	755,1	0,12
01.07.2023	422 606,6	559,6	0,13

2-jadval: Chet eldan qayta sug'urtaga olingan risklar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar<sup>6</sup>

Yillar	Chet eldan qayta sug'urtaga olingan risklar javobgarligi, mlrd. so'm	Chet eldan qayta sug'urtaga olingan risklar bo'yicha qayta sug'urta mukofoti, mlrd. so'm	Shartli sug'urta tarifi (qayta sug'urta mukofotining javobgarlikka nisbati),%da
2020	10 775,7	103,6	0,96
2021	15 585,1	332,9	2,14
2022	172 734,6	940,1	0,54
01.07.2023	99 469,8	550,9	0,55

To'g'ri, sug'urta ta'riflari qayta sug'urtalanayotgan obyektga, qanday risklar mavjudligiga, sug'urta mudatiga, proporsional yoki noproporsional qayta sug'urtalashga yoki eksedent asosida sug'urtalashga va boshqa bir qator omillarga bog'liq.

Shu o'rinda, bir omilga e'tibor qaratish muhim deb hisoblaymiz, 2022-yilda O'zbekiston milliy sug'urta kompaniyalari 940,1 mln. so'm qayta sug'urta mukofoti evaziga chet eldan qayta sug'urta risklarini qabul qilib olishgan. Bu taxminan 2022-yilda 85 mln. AQSh dollari miqdorida sug'urta xizmatlari ko'rsatilgani, ya'ni sug'urta xizmatlari eksport qilinganligini bildiradi.

O'zbekistonda tovar va xizmatlar eksporti statistikasi yuritiladi, lekin xizmatlar eksporti tarkibida sug'urta eksporti ko'rsatkichi mavjud emas. 2023-yilda chet elga sug'urta xizmatlari eksporti 100,0 mln. AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda.

Davlatimiz tomonidan har bir sohada eksportni qo'llab quvvatlash borasida bir qator qarorlar qabul qilinib, eksportni rivojlantirish bo'yicha imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Shu o'rinda, sug'urta xizmatlari eksportini rivojlantirishga e'tiborni oshirish lozim, sababi bir qator milliy sug'urta kompaniyalari chet eldan qayta sug'urtaga risklarni qabul qilib olish bo'yicha xalqaro dasturlarda ishtirok etmoqda. Lekin, risklarni qabul qilish chegaralangan, ya'ni u yoki bu amaldagi normativ hujjatlar talablariga to'g'ri kelmaydi, bu sug'urta eksportini rivojlantirishda asosiy to'siq bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizomning 33 bandida "Sug'urtalovchi sug'urta zaxiralari mablag'lari qiymatiga ekvivalent bo'lgan summadagi aktivlarni ajratishi shart. Ajratilgan aktivlar, ularni ajratish vaqtida sug'urtalovchining hisob va hisobot registrlarida aniq belgilangan bo'lishi shart. Ajratilgan aktivlarning umumiy qiymati sug'urta zaxiralari mablag'larining jami miqdoridan kam bo'lmasligi lozim. Ajratilgan aktivlar qiymati sifatida ularning balans qiymati tushuniladi"<sup>7</sup> deb belgilab qo'yilgan.

5 <https://imda.uz/> saytida Sug'urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma'lumotlari.

6 <https://imda.uz/> saytida Sug'urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma'lumotlari.

7 Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizom, 33-bandi.



Amaliyotda sug'urta kompaniyalari risklarni chet eldan qabul qilish bilan birga uni retrotsessiya asosida yana qayta sug'urtaga berishi amaliyoti mavjud. Lekin, bunda amaldagi tegishli Nizomlarga asosan ajratilgan aktivlar bo'yicha qo'yilgan talablar sug'urta tashkilotlarining imkoniyatini cheklamoqda, sababi sug'urta kompaniyasi qabul qilgan riski bo'yicha sug'urta zaxiralarini shakllantiradi, lekin bu riskni qayta sug'urtaga bergani bilan u tomonidan shakllantirilgan zaxiralar kamaymaydi. Ikki tomonlama zaxira shakllantirish amaliyoti saqlanib qolmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urta faoliyatining qonuniy asoslari, xalqaro sug'urta (qayta sug'urta) bozori bilan integratsiya jarayonlari, mavjud amaliyot tahlilidan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflarni bildiramiz:

*Birinchi*dan, O'zbekiston sug'urta sohasida "sug'urta riski" tushunchasini qonuniy asoslarini joriy etish hamda amaliyotda qo'llashga kiritish lozim deb hisoblaymiz. Sug'urta riski bu sug'urta tavakkalchiligi, sug'urta qaltisligi tushunchalarini umumlashtirish va xalqaro sug'urta bozori bilan integratsiya jarayonida sug'urta terminlarini to'g'ri qo'llash imkoniyatini beradi.

*Ikkinchi*dan, O'zbekistonda eksport, import statistikasini yuritishda xizmatlar eksportida "sug'urta eksporti"ni joriy etish lozim deb hisoblaymiz. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida xizmatlar eksporti mamlakat eksportining asosini tashkil qiladi. O'zbekistonda 2023-yilda 100,0 mln. AQSh dollaridan ortiq sug'urta eksporti amalga oshirilishini inobatga olsak, bu O'zbekiston eksportida salmoqli o'rinni egallaydi.

*Uchinchi*dan, O'zbekiston sug'urta sohasida sug'urta zaxiralarini shakllantirishning yangi metodlarini ishlab chiqish, bunda qayta sug'urta faoliyati uchun alohida, maqbul sug'urta zaxiralarini shakllantirish usullarini joriy etish lozim. Amaldagi sug'urta zaxiralarini shakllantirish tizimi hozirgi jahon sug'urta bozori bilan integratsiya jarayonlarida ancha eskirgan va sug'urta eksportini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratib bera olmayapti.

*To'rtinchi*dan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralarini to'g'risida"gi Nizomga o'zgartirishlar kiritish, sug'urta kompaniyalari uchun ajratilgan aktivlarga qo'yilgan talablarni qayta ko'rib chiqish lozim.

*Beshinchi*dan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 12-mayda 1806-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizomga o'zgartirishlar kiritish, to'lov qobiliyati marjasining yetarilligi normativini hisoblash metodlariga o'zgartirishlar kiritish, sug'urta eksporti uchun zarur bo'lgan normalarni belgilash lozim.

Shuningdek, mazkur Nizomning 33-bandida qayta sug'urta risklarni berishda chet el qayta sug'urta kompaniyalariga qo'yilgan reytinglarni qayta ko'rib chiqish, sug'urta mukofotlarini imkon qadar mamlakatda olib qolish maqsadida mazkur qayta sug'urta tashkilotlariga qo'yilgan reyting talablarini yumshatish lozim.

*Oldinchi*dan, Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) uchun ustav kapitalining minimal miqdorlarini qayta ko'rib chiqish va raqobatbardosh sug'urta kompaniyalarini sug'urta bozorida faoliyat yuritishi uchun minimal miqdorlarni oshirish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. Top 50 Global Reinsurance Groups. <https://www.reinsurancene.ws/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
4. Moliya vazirligining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralarini to'g'risida"gi Nizom.
5. <https://res.cloudinary.com/drxqomgmy/image/upload/v1692277323/ccg7ofsczsxtlevzs75d.pdf>
6. <https://imda.uz/> saytida Sug'urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma'lumotlari.
7. Kenjayev I.G'. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 59 b.
8. Umarov S.A. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2012. – 49 b.
9. Shennayev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya. – T.: "Iqtisod-moliya", 2021. – 336 b.
10. Yuldashev O.T. O'zbekistonda hayot sug'urtasini rivojlantirishning konseptual asoslari. Monografiya. – Qarshi.: "Intel-ekt", 2022. – 290 b.
11. Qo'ldoshev Q.M. Sug'urtaning muqobil shakli sifatida o'zaro sug'urtalash jamiyatlarini tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslari. Monografiya. – T.: "Vneshinvestprom", 2018. – 120 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

